

AZOTLI O‘G‘ITLAR QO‘LLASH MUDDATLARINI TUPROQDAGI ALMASHINUVCHI KALIY DINAMIKASIGA TA‘SIRI

Ishonqulova Gulhon Tagaymurotovna

Angren Universiteti “Davolash ishi”fakulteti

“Umumdavolash ishi”kafedrasi o‘qituvchisi

gulxonishonkulova@gmail.com

Ishanqulova Mehri Muratovna

Angren Universiteti “Davolash ishi”fakulteti

“Umumdavolash ishi”kafedrasi o‘qituvchisi.

ishankulovamexri@gmail.com

Abduhamidov Qudrat Obidjonovich

Angren Universiteti “Davolash ishi”fakulteti

“Kasbiy fanlar”kafedrasi o‘qituvchisi.

abduhamidovqudrat1994@gmail.com

Dolzarbligi: Bugungi kunda qishloq xo‘jaligida tuproq unumdarligini saqlash va oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tuproq unumdarligining pasayishi, oziqa moddalarining kamayishi va ekinlarning o‘sish jarayoniga ta’sir qiluvchi omillar global miqyosda dolzarb masala hisoblanadi. Ayniqsa, kuzgi bug‘doy kabi asosiy don ekinlari uchun mineral o‘g‘itlarning optimal qo‘llanilishi hosildorlikni oshirish va tuproqning uzoq muddatli unumdarligini ta’minlashda katta ahamiyatga ega.

Azotli o‘g‘itlarning o‘simlik o‘sish bosqichlariga qarab berilishi natijasida tuproqdagagi oziqa moddalari tarkibi, ayniqsa, almashinuvchi kaliy miqdorining o‘zgarishi ilmiy va amaliy jihatdan o‘rganilishi lozim bo‘lgan masalalardan biridir. Tuproqning kaliy bilan ta’minlanganligi nafaqat hosildorlikka, balki o‘simliklarning stress omillariga

bardoshliliga ham ta'sir qiladi. Shu sababli, kuzgi bug'doyga azotli o'g'itlarni turli davrlarda qo'llash natijasida tuproqdagi almashinuvchi kaliy dinamikasining o'zgarishini o'rganish qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida samarali agrotexnologiyalarni joriy etish uchun zarur ilmiy asos yaratadi. Tadqiqot natijalari mineral o'g'itlarni ilmiy asoslangan holda qo'llash, tuproq unumdorligini oshirish va hosildorlikni barqaror saqlash bo'yicha muhim tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi. Shu bois, mazkur mavzu qishloq xo'jaligi va tuproqshunoslik sohalarida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning maqsadi: Ushbu tadqiqotning maqsadi – kuzgi bug'doyga azotli o'g'itlarni turli o'sish bosqichlarida qo'llashning tuproqdagi almashinuvchi kaliy miqdoriga ta'sirini o'rganish va uning dinamikasini aniqlashdir. Tadqiqot natijalariga asoslanib, tuproq unumdorligini oshirish va hosildorlikni barqaror saqlash uchun samarali mineral o'g'itlash tizimini ishlab chiqish ko'zda tutilgan. Shu bilan birga, olingan ilmiy ma'lumotlar asosida qishloq xo'jaligi amaliyotida qo'llanilishi mumkin bo'lgan tavsiyalar ishlab chiqish ham ushbu ishning asosiy maqsadlaridan biridir.

Tadqiqot materiallari va usullari: S. Kojaxmetov va T. Toshxo'jayev [2.40; 17–16-b.] Toshkent viloyatida olib borgan tajribalarida kuzgi bug'doy uchun 20 t/ga go'ng + N90P60K30 kg/ga, 20 t/ga go'ng + N120P90K30 kg/ga va 20 t/ga go'ng + N150P120K30 kg/ga o'g'itlar qo'llashgan. Natijada, ushbu variantlar bo'yicha mos ravishda 78,2 s/ga, 87,6 s/ga va 85,3 s/ga don hosili olingan. Shuningdek, T. Toshxo'jayev [2.89; 22–23-b.] shu sharoitda kuzgi bug'doyning Polovchanka navi uchun 20 t/ga go'ng + N60P30 kg/ga o'g'it berish orqali don hosilini fonga nisbatan 12,6 s/ga yuqori bo'lishiga erishgan. Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz tajriba tizimini quyidagicha belgilab oldik (1-jadval). Unga ko'ra, tajriba 14 ta variant, 4 qaytariqdan iborat bo'lib, bir yarus qilib joylashtirilgan. Har bir bo'lakchaning umumiyligi maydoni 360 m², hisobga olish maydoni esa 180 m² ni tashkil etgan. Tajribaning umumiyligi maydoni 2,060 gettarga to'g'ri kelgan.

Tadqiqot natijalari:

1-jadval

Tajriba tizimi

Variantlar	Azotni berish muddatlari				
	Ekishdan oldin	Tuplash	Naychalash	Boshqoqlash	Sut mum pishish
1	30	75	75		
2	-	80	100		
3	30	50	50	50	
4	-	40	50	50	40
5	30	40	40	40	30
6	-	80	-	100	
7	30	75		75	
8	30	50	60		40
9	-	60	80		40
10	30	-	75	75	
11	30		60	60	30
12	-	55	100	25 (sharbat)	
13	30	50	75	25 (sharbat)	
14	25	75	75		5 (sharbat)

Barcha kuzatuv, tahlil va hisob-kitoblar O‘zPITIda qabul qilingan “Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari” [3; 147-b.], “Metody agrokhimicheskikh analizov pochv i rasteniy” [5; 656-b., 1.16; 187-b.], “Metodika polevykh i vegetatsionnykh optyov s khlopchatnikom v usloviyakh orosheniya” [6; 233-b.] uslublari asosida olib borildi. Tajriba ma’lumotlari B.A. Dospexovning [4; 248-255-b.] “Metodika polevogo opyta” uslubi asosida matematik tahlil qilindi.

Xulosa: Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kuzgi bug‘doy uchun azotli o‘g‘itlarni turli fazalarda qo‘llash tuproqdagi almashinuvchi kaliy miqdoriga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, azotli o‘g‘itlarning yillik me’yori 30 kg/ga ekishdan oldin, 50 kg/ga tuplash fazasida, 75 kg/ga naychalash va 25 kg/ga boshqoqlash fazasida berilganida tuproqdagi almashinuvchi kaliy miqdori 30 mg/kg ga kamayganligi aniqlandi. Shuningdek, turli mineral va organik o‘g‘itlar me’yorlari kuzgi bug‘doy hosildorligiga ham ta’sir ko‘rsatib, eng yuqori hosilga 20 t/ga go‘ng + N120P90K30 kg/ga o‘g‘itlar qo‘llangan variantlarda erishildi. Tajriba natijalariga ko‘ra, tuproq unumdorligini oshirish uchun azot, fosfor va kaliy o‘g‘itlarini muvozanatli va o‘z vaqtida qo‘llash muhim

ahamiyatga ega ekanligi tasdiqlandi.Bundan tashqari, tuproq tarkibining agrokimyoviy tahlillari shuni ko'rsatdiki, gumus miqdori tuproqning pastki qatlamlariga tushgan sari kamayib boradi. Kuzgi bug'doy hosili yig'ishtirib olingandan keyin ham tuproqdag'i gumus miqdori biroz kamaygani kuzatildi. Bu esa o'simlik qoldiqlarini dalada qoldirish va organik o'g'itlardan foydalanish muhimligini ko'rsatadi.

Tajriba natijalarini asosida quyidagi tavsiyalar beriladi:

Azotli o'g'itlarni tuproq sharoitiga mos holda, turli o'sish fazalarida muvozanatli ravishda qo'llash zarur.Tuproq unumdorligini saqlash va oshirish uchun mineral o'g'itlar bilan bir qatorda organik o'g'itlardan ham foydalanish lozim.Kuzgi bug'doy navlarining mahsuldorligini oshirish uchun optimal oziqlantirish sxemalarini ishlab chiqish muhim.Sho'rланish va gumus kamayishining oldini olish uchun dalalarni unumdorlik darajasiga qarab maxsus agrotexnik tadbirlar bilan ta'minlash lozim.Shunday qilib, o'rganilgan tajriba natijalarini kuzgi bug'doy yetishtirishda samarali o'g'itlash tizimini shakllantirishga ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aliyev Ye.I. Kornevyye i pojnivnyye ostatki kultur kak istochnik organicheskix udobreniy. // Vestn. s-x nauk-1964.-№9. –S. 38-39.
2. Gutin N.G. Kornevaya sistema polevых kultur: Moskva. –Kolos.-1964, S-120.
3. Dala tajribalarini o_tkazish uslublari / Uslubiy qo_llanma. – Toshkent. O_zPITI, 2007. – 147 b.
4. Dospexov B.A. Metodika polevogo opyta. - M. Izd-vo «Agropromizdat», 1985. – 352 s.
5. Metodы agroximicheskix analizov pochv i rasteniy. – Tashkent. SayuzNIXI, 1977. – 187 s.
6. Metodika polevых i vegetasionnyx opytov s xlopciatnikom v usloviyah orosheniya. – Tashkent. SayuzNIXI, 1981. – 233 s.

7. Corbellini M. Mazrale M. And othyers. Mediterranean climate and quality wheat: effect of the duration and intensity of heat shock, during grain filling on protein composition and technological quality. Proceedings of 5-th international wheat conference. Ankara 2006. p. 185-186.